

# Sariosiyo

2026-yil–Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili

24 aprel 2026 yil. Juma № 15 (8243)

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

(Gazeta 1932 yildan «Sariosiyo haqiqati» nomi bilan chiqa boshlagan)

## Sariosiyo tumani prokurori Botir Oltibaevning huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasi va jinoyatchilikning oldini olishga doir tuman aholisiga MUHOJIRATI

### Hurmatli tumanimiz aholisi, aziz yoshlar va muhtaram xotin-qizlar!

Bugungi kunda yurtimizda qonun ustuvorligi va jamoat tartibini ta'minlash – davlat va jamiyatning eng ustuvor vazifalaridan biridir. Jinoyatchilikka qarshi kurashishda har bir fuqaroning faolligi, oila va mahallaning mas'uliyati juda muhim. Tuman prokuraturasi sifatida biz barcha bilan hamkorlikda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashni maqsad qilamiz.

### Yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilik – oldini olish mumkin bo'lgan muammo.

So'nggi yillarda yoshlar o'rtasida turli huquqbuzarliklar ko'payib borayotgani kuzatilmoqda. Ayniqsa: internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali sodir etiladigan firibgarliklar, telefonidan foydalanib sodir bo'ladigan kibernetik jinoyatlar, guruhbozlik, jamoat joylaridagi bezorilik, narkotik moddalarni saqlash va tarqatish bilan bog'liq holatlar.

Hurmatli yoshlar! Har biringiz kelajagimizning bunyodkorisi, yurtning tayanchisiz. Bir daqiqalik xato, bir noto'g'ri qadam butun umrga ta'sir qiluvchi oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu sababli: qonunlarga rioya qilish, atrofdagilarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, onlayn xavfsizlik qoidalariga amal qilish – sizlarning asosiy burchingizdir.

### Xotin-qizlar o'rtasida jinoyatchilik va zo'rovonlik holatlari.

Afsuski, ba'zi holatlarda xotin-qizlar ham huquqbuzarliklar qurboni yoki ishtirokchisiga aylanmoqda. Buning asosiy sabablari – ijtimoiy muammolar, iqtisodiy qiyinchiliklar, oilaviy nizolar va huquqiy bilimning yetishmasligi.

Shu sababli: ayollarga nisbatan zo'rovonlikka mutlaqo yo'l qo'yilmaydi, iqtisodiy va oilaviy bosim ostida qolayotgan ayollarga mahalla, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ijtimoiy xizmatlar tomonidan yordam ko'rsatiladi, ayollar orasida firibgarlik, qarz-oldi munosabatlarida qonunbuzarlik, noqonuniy kredit faoliyatiga jalb qilish holatlariga qarshi qat'iy choralar ko'riladi.

### Har bir fuqaro – xavfsizlik qalolati.

Tuman hududida tinchlikni saqlash – faqat prokuratura yoki ichki ishlar organlarining emas, balki barchamizning umumiy vazifamizdir. Shubhali holatlar, firibgarlik, internetda tahdidlar, yoshlar o'rtasida nizo va xatarlarni ko'rsangiz, befarq bo'lmang.

### Hurmatli tumanimiz aholisi!

Bugungi kunda osoyishtalik – eng katta boyligimiz. Qonun ustuvorligi, jamiyatda mas'uliyat, oilada hurmat va o'zaro mehroqibat bo'lgan joyda jinoyatchilikka o'rin yo'q. Birgalikda harakat qilsak, yurtimizni yanada tinch, xavfsiz va farovon qila olamiz.



## “Madaniyat va san'at xodimlari kuni” keng nishonlandi

Tumanda “Madaniyat va san'at xodimlari kuni” munosabati bilan bayram tadbiri tashkil etildi. Unda soha fidoyilari, san'at ahli hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Tadbirda tuman hokimi Odiljon Yaqubov qatnashib,

barcha madaniyat va san'at xodimlarini samimiy kasb bayrami bilan tabriklandi hamda ularning jamiyat hayotidagi o'rni haqida to'xtalib o'tdi.

Shuningdek, tadbir davomida so'z olganlar yurtimizda, xususan,

tumanimizda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ijobiy ishlarni e'tirof etdilar.

O'z kasbiga sadoqat bilan xizmat qilib kelayotgan bir guruh madaniyat va san'at xodimlariga tuman hokimligining faxriy

yorliqlari hamda esdalik sovg'alari topshirildi.

Bayramona bezatilgan dasturxon atrofida san'atkorlar ijrosidagi chiqishlar tadbirga yanada ko'tarinki kayfiyat va o'zgacha zavq-shavq bag'ishladi.



## Bojxona organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish: samarali tizim sari muhim qadamlar

Bojxona organlari davlat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, tashqi savdoni tartibga solish va byudjet tushumlarini oshirishda muhim o'rin tutadi. Shu bois, ushbu tizimda korrupsiyaning mavjudligi nafaqat iqtisodiy yo'qotishlarga, balki davlat obro'sining pasayishiga ham olib keladi. Bojxona sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish esa bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shaffoflikni ta'minlash, raqamlashtirish, va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqali ushbu muammoni sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Shu sababli yurtdoshlarimizdan bojxona sohasida bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday korrupsion holatlar yuzasidan Davlat Bojxona qo'mitasining 1108 qisqa raqamli hamda Surxondaryo viloyati Bojxona boshqarmasi navbatchilik qismining +998762282451 raqamli ishonch telefonlariga murojaat qilishlarini so'raymiz.

**Y.SHARIFOV,**  
“Sariosiyo” temir yo'l chegara bojxona posti inspektori

## INTERNET: Ilm manbayimi yoki vaqt o'g'risi?

21 asrning global muammolaridan biri-ijtimoiy tarmoqlarga qaram bo'lib qolish. Tog'ri, biz zamonaviy hayotimizni internetsiz tasavvur qila olmaymiz. Lekin internetga, ya'ni ijtimoiy tarmoqlarga qaram bo'lib qolaymiz. Bu esa bizning rivojlanishimizga to'sqinlik qiladi va ongimizni zaharlaydi. Agar ongimiz zaharlansa inson o'z fikrini unutilib qo'yadi va bironing fikri bilan qaror qabul qiladi. Bunday inson fikrsiz ya'ni ongsiz hisoblanadi.

Ko'pchilik internetni qoralaydi, lekin bu uning butkul yomon degani emas. Uning foydali tomonlari ham bor! Hozirda hammaning savoli-“Internet ilm manbayimi yoki vaqt o'g'risi?”

Internetning afzalliklaridan biri bu – ilm olishdagi yengillikdir. Ilgari biror bir savolni tushunmasak, kutubxonaga borib bir nechta kitoblarni varoqlashimizga to'g'ri kelardi. Hozirda esa sun'iy intellekt, ya'ni internet yordamida bu muammoning yechimini bir necha daqiqada topishimiz mumkin. Masalan: Ibrat Academy, Khan Academy, Wikipedia kabi saytlar. Siz o'zingizning sohangiz bo'yicha saytlardan foydalanishingiz mumkin.

Masalan, men hozirda SAT xalqaro sertifikatiga tayyorlanayapman. Darslarimni ko'pincha internet orqali bajaraman, chunki bu vaqtimni tejashimga yordam beradi. Mening o'yashimcha bu men uchun qulay hamda samarali yo'ldir. Hozirda eng nufuzli universitetlarning video darslari joylashtirilgan – bu biz uchun yangi imkoniyat hisoblanadi.

Internetning foydali tomonlari ko'p, lekin uni salbiy maqsadda ishlatadiganlarni ham umhratamiz. Ularning ongini internet zaharlagan desak, to'g'ri bo'ladi. Internetni bir botqoqlikka o'xshatish mumkin, chunki unga tushgan odam chiqishi juda qiyin bo'ladi. Ko'pchilik ta'qiqlangan saytlarga kirib 4-5 yil umrini qamoqxonalarda o'tkazishi yoki juda katta qarza botib ketishi mumkin. Bu esa inson hayotini butkul barbod qilishi mumkin.

Ba'zi insonlar ijtimoiy tarmoqlarda soatlab



vaqt o'tqazishadi. Tik-Tok, Instagram va Youtube platformalarida keraksiz kontentlarni tomosha qilib, vaqtlarini bekor o'tkazishadi. Bu narsa insonning ish unumdorligini pasaytiradi va fikrlashni susaytiradi.

Ijtimoiy tarmoqlarni to'liq yomon deb bo'lmaydi, chunki unda foydali ma'lumotlar juda ko'p. Ijtimoiy tarmoqlardan salbiy tomondan foydalanmaslik uchun quyidagi maslahatlarni beraman va umid qilamanki, bu maslahatlar sizga katta yordam beradi

1. O'z vaqtini boshqarishni o'rganish – kunlik rejaga amal qiling va telefoningizga vaqt cheklovchi ilovalarni o'rnatong. Masalan: Forest, Stay Focussed.

2. Mazmunsiz kontentlarni mutlaqo cheklash.

3. Haqiqiy hayotdagi faoliyatlarga ko'proq vaqt ajrating.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlarni butunlay yo'q qilish shart emas, ammo ularni nazorat ostida ishlatish zarur. Maqsadsiz foydalanishdan ko'ra, hayotingizga qiymat qo'shadigan tarzda foydalaning –shunda siz o'zingiz oldingizga qo'yg'an maqsadlaringizga kam ko'stsiz erishasiz.

**Maknuna SAYIDALIYEVA,**  
Ixtisoslashtirilgan maktab-internatning 10-B sinf o'quvchisi



## BESH TASHABBUS AMALDA

“Yoshlar bizning kelajagimiz”, “BESH TASHABBUS-BESH IMKONYAT” festivali doirasida tumandagi 47-sonli umumta'lim maktabida tadbir o'tkazildi. Belgilangan reja

asosan 11-aprel kuni 47-sonli umumta'lim maktabida Besh tashabbus festivali o'tkazildi. Tadbirni maktab MMIBDO' Z.Yorov ochib berdi. Shundan so'ng o'quvchilar tomonidan

tayyorlangan badiiy chiqishlar, ashula va raqs, sahna ko'rinishlari hamda sport o'yinlari namoyish etildi.

O'quvchilar tashabbusi bilan Osh sayli ham o'tkazildi. Tadbirda Billur MFY raisi M.Ismoilova, Billur MFY Yoshlar yetakchisi D.Sattorovlar taklif etildi.

## Ish haqi va mehnat ta'tili pullari undirildi

Sariosiyo tumani Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish jamiyati fuqaroning 2026-yil 28-yanvardagi og'zaki murojaatini o'rganib chiqdi. Murojaat «Bio Tex Эко» MCHJ mas'ul xodimlari ishtirokida joyiga chiqib atroflicha tekshirildi.

### Murojaat sababi

Fuqaro 2025-yil dekabr oyi uchun ish haqi va 2026-yil yanvar oyi uchun mehnat ta'tili pullari bugungi kungacha berilmaganligidan norozi bo'lgan.

O'rganish jarayonida ma'lum bo'lishicha, 2025-yil dekabr oyi ish haqi puli kech moliyalashganligi sababli to'lanmagan. Tekshiruv natijasida fuqaroga uning 2025-yil dekabr oyi ish haqi va 2026-yil yanvar oyi mehnat ta'tili pullari uchun jami 5 125 000 (besh million bir yuz yigirma besh ming) so'm pul mablag'i to'lab berildi. Fuqaroning huquqlari tushuntirildi.

**M.ZARIPOVA,**  
tuman Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyati raisi, xalq deputatlari tuman Kengashi deputati

Joriy yilning 9 aprel sanasi

O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2026 yil 7 aprel

kunidagi PQ-134-sonli

«O'zbekiston Respublikasi

Qurolli Kuchlari safida muddatli

harbiy xizmatni o'tash nufuzi va

jozibadorligini oshirish bo'yicha

navbatdagi chora-tadbirlar

to'g'risida»gi qarorini ijrosini

ta'minlash maqsadida Uzun

tumanidagi DXX Chegara

## OCHIQ ESHIKLAR KUNI

Prezidentining qarorini mazmun-mohiyati o'qib eshittirilib, muddatli harbiy xizmatchilarga yaratilayotgan shart-sharoitlar bilan tanishtirildi.

Tadbir yakunida o'quvchilar harbiy qism kutubxonasiga tashrif buyurib, mavjud badiiy adabiyotlar bilan tanishdilar.

**SH.ISAKOVA,**  
harbiy qism kutubxonachisi

Tadbirda o'quvchi-yoshlarga

O'zbekiston Respublikasi

## ZAMONAVIY HAYOT VA SALOMATLIK: Yashirin xavflar va himoya yo'llari

**/Davomi, boshi 1-betda/**

Yirik shaharlarda yashovchilar bunday muhitga ko'proq duch kelishadi. Stress bilan kurashish uchun meditatsiya, sport yoki kitob o'qish kabi usullardan foydalanish kerak. Ijtimoiy tarmoq bilan bog'lanib qolish, yaqinlar bilan jonli muloqot qilish muhim. Har kuni kamida 30 daqiqa yurish yoki jismoniy mashqlar bajarish tavsiya etiladi. Ish vaqti tanaffuslar qilish, ko'zni dam o'ldirish va to'g'ri o'tirish kerak. Tabiiy mahsulotlar, ko'katlar va mevalarni ko'proq iste'mol qilish lozim. Fastfud va shirin ichimliklardan voz kechish, yetarlicha ushiv ichish kerak. Kun davomida ekranga qarash vaqtini cheklash, kechqurun smartfon kamroq foydalanish. Ko'z uchun mashqlar bajarish, ko'z shifokoriga muntazam borish. Iloji boricha ochiq havoda ko'proq vaqt o'tkazish. Xonani shamollatish, toza ekologik mahsulotlardan foydalanish joiz. Daxaqliq texnologik taraqqiyot inson hayotini ancha qulaylashtirdi. Endi

birgina tugma bosish orqali har qanday ma'lumotga ega bo'lish, masofadan turib ishlash yoki ta'lim olish mumkin. Ammo bu qulayliklar bilan birga, inson salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi yangi xavflar ham yuzaga chiqdi. Stress, jismoniy harakatsizlik, zararli oziq-ovqatlar va ekologik muammolar yashirin tahdid sifatida organizmga ta'sir qilmoqda. Hozirgi jamiyatda insonlarning hayoti tezkorlik bilan kechmoqda. Ish yoki o'qishdagi bosim, ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlar oqimi va doimiy harakat inson ongiga katta yuk tushiradi. Bunday sharoitda doimiy stress va charchoq paydo bo'ladi. Uzoq davom etgan ruhiy bosim esa uyqusizlik, depressiya ham olib kelibgina qolmay organizm o'zgarishlariga olib kelishi mumkin. Kun davomida qisqa tanaffuslar qilish, chuqur nafas olish mashqlari bajarish. Qolaversa, jismoniy faollik yetishmovchiligi immunitizimining susayishiga sabab bo'lishi mumkin. Har 30-40 daqiqada tanaffus qilib,

ozgina harakat qilish. Kuniga kamida 8 000 – 10 000 qadam yurishga harakat qilibgina qolmay. Sport zaliga borish imkoni bo'lmasa ham, uy sharoitida mashqlar bajarish juda muhim deb o'ylayman. Ko'pchilik tez tayyorlanadigan ovqatlar va shirin gazlangan ichimliklarni iste'mol qilishga odatlangan. Hozirgi kunda biz yoshlarning ham o'qishdan yoki ishdan charchab kelib tez tayyorlanadigan taomlar yashirin xavflar. Lapshalar, yoki tezdagina fastfud va shirin ichimliklar buyurtma qilamiz bu esa organizmni buzulishiga va har xil kasalliklar keltirib chiqishi mumkinligini bila turib ham istemoldan to'xtamaymiz. Kun davomida yetarli miqdorda suv ichish (kamida 1,5-2 litr). Ratsionimizga ko'proq sabzavot, meva, to'yimli don mahsulotlari qo'shishimiz lozim. Telefon, kompyuter va televizor ekranlariga uzoq vaqt tikilib o'tirish ko'zning zo'riqishiga sabab bo'ladi. Buning ustiga, gadgetlarning ko'k nurlari uyqu sifatini pasaytirib,

organizmning biologik soatini buzadi. Bu esa charchoq, diqqatni jamlay olmaslik va kayfiyatning yomonlashishiga olib keladi. Bularning oldini olish uchun quyidagicha sog'ligingizga ahamiyat berishingiz kerak ya'ni, kechasi uyqudan oldin ekran oldida o'tirishni kamaytirish, ko'zlarni dam o'ldirish uchun har 20 daqiqada bir necha soniya uzoqqa qarash. Ko'z shifokoriga muntazam ravishda borib, tekshiruvlardan o'tish o'z sog'ligimiz uchun qayg'urishimizni bugundan boshlashimiz lozim keyin kech bo'lmasin!

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlab o'tishim joizki. Zamonaviy hayot qulayliklar bilan birga, sog'liq uchun yangi muammolari ham keltirib chiqarmoqda. Agar salomatligimizga beparvo qarasaq, turli kasalliklarga yo'liqqanimizni sezmay ham qolishimiz mumkin. Shu sababli, har birimiz hayot tarzimizni kuzatgan holda, zarur ehtiyoj choralarini ko'rishimiz lozim. Siz o'zingiz uchun qanday sog'lom odatlarni shakllantirgansiz? Bu haqda o'yab ko'ring va hozirdan harakat qiling!

**To'ychi MAMADAMINOV, O'zbekiston Ekologik partiyasi Sariosiyo tuman Kengashi raisi**



**Tumandagi 18-umumta'lim maktabi o'quvchi yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda iqtidorli o'quvchilarni aniqlash maqsadida 7-8-9-10-11-sinflar o'rtasida kimyo fanidan, 5-6-sinflar o'rtasida matematika fanidan "Direktor olimpiada"si tashkil qilindi. Matematika fani o'qituvchisi Salomov Inomali va kimyo fani o'qituvchisi Azizova Hulker tomonidan tashkil qilingan "Direktor olimpiada"si ko'tarinki yulda maktab rahbarlari tomonidan ochib berildi.**

**"Direktor olimpiada"si shaffof va adolatli o'tkazilishi ta'minlandi. Direktor olimpiadasi keyingi orzular uchun rejalar poydevori ekanligi barcha o'quvchilarni quvontirdi. Olimpiada g'oliblari maktab ma'muriyati tomonidan tantanali ravishda taqdirlandilar. G'oliblarga esdalik sovg'alari topshirildi.**

## Sariosiё tumani maхallalarida ўtkazilgan seminarlar tadбиркорлар сонини оширишга хизмат қилмоқда

Tumanda aholini tadбирkorlikka keng jalb etishi, ularning iqtisodiy faolligini oshirish va yangi ish ўrinlarini yaratish maqsadida maхallalar kesimida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, maхallalarda faoliyat juriatga olib borilgan tadбирkorlikni rivojlantirishda muhim ўringa tushadi. Ular aholining muammolarini ўrganib, har bir fuqaroga bilan yakka tartibda ish olib bormoqda. Shu orqali ishchi fuqarolar tadбирkorlikka iynaldirilib, ularga amaliy ёрдам kўrsatilmokda. Ўtkazilgan seminarlar natijasida mazkur maхallalarda tadбирkorlikka kizikuvchi fuqarolar soni ortib bormoqda. 45 nafar tinglovchidan kўpchiligi ўz biznes foyalarini ilgari surib, ularni amalga oshirish uchun dastlabki qadamlarni tashlashmoqda. Bu esa maхallalarda tadбирkorlar sonining kўpайishiiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, hokim ёрдамчилari tomonidan fuqarolarga doimiy ravishda maslahat va amaliy ёрдамlar kўrsatilmokda. Ular tadбирkorlikni boshlashda хужжатlarni rasmiylashtirish, kredit olish va biznesni rivojlantirishda muhim kўmakchi бўлиб хизмат қилмоқда. Xulosa қилиб айтганда, Sariosiё tumandagi Sebzor, Chilonzor va Yangiҳаёт maхallalarida hokim ёрдамчилari tomonidan fuqarolarga doimiy ravishda maslahat va amaliy ёрдамlar kўrsatilmokda. Ular tadбирkorlikni boshlashda хужжатlarni rasmiylashtirish, kredit olish va biznesni rivojlantirishda muhim kўmakchi бўлиб хизмат қилмоқда. Shu bilan birga, hokim ёрдамчилari tomonidan fuqarolarga doimiy ravishda maslahat va amaliy ёрдамlar kўrsatilmokda. Ular tadбирkorlikni boshlashda хужжатlarni rasmiylashtirish, kredit olish va biznesni rivojlantirishda muhim kўmakchi бўлиб хизмат қилмоқда.

bўйича amaliy tavsiyalar berildi. Iштирокчилар ўzларини kiziktirgan savollarga javob oldilar. Aloхida taъkidlash жоizki, hokim ёрдамчилari maхallalarda tadбирkorlikni rivojlantirishda muhim ўringa tushadi. Ular aholining muammolarini ўrganib, har bir fuqaroga bilan yakka tartibda ish olib bormoqda. Shu orqali ishchi fuqarolar tadбирkorlikka iynaldirilib, ularga amaliy ёрдам kўrsatilmokda. Ўtkazilgan seminarlar natijasida mazkur maхallalarda tadбирkorlikka kizikuvchi fuqarolar soni ortib bormoqda. 45 nafar tinglovchidan kўpchiligi ўz biznes foyalarini ilgari surib, ularni amalga oshirish uchun dastlabki qadamlarni tashlashmoqda. Bu esa maхallalarda tadбирkorlar sonining kўpайishiiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, hokim ёрдамчилari tomonidan fuqarolarga doimiy ravishda maslahat va amaliy ёрдамlar kўrsatilmokda. Ular tadбирkorlikni boshlashda хужжатlarni rasmiylashtirish, kredit olish va biznesni rivojlantirishda muhim kўmakchi бўлиб хизмат қилмоқда. Xulosa қилиб айтганда, Sariosiё tumandagi Sebzor, Chilonzor va Yangiҳаёт maхallalarida hokim ёрдамчилari tomonidan fuqarolarga doimiy ravishda maslahat va amaliy ёрдамlar kўrsatilmokda. Ular tadбирkorlikni boshlashda хужжатlarni rasmiylashtirish, kredit olish va biznesni rivojlantirishda muhim kўmakchi бўлиб хизмат қилмоқда.

**Ф.ТўРАЕВ**  
**Бизнес ва tadбирkorlik oliy maktabi**  
**Сурхондарё филиали раҳбари**  
**Ш.ХИДИРОВ,**  
**Филиал доценти**

## Avf etilgan fuqarolar sog'lom va ijtimoiy hayotga qaytarilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 17-martdagi 43-sonli Farmoni ijrosi doirasida ozodlikdan mahrum etish jazolaridan ozod etilgan shaxslarni sog'lom va ijtimoiy hayotga qayta moslashtirish choralarini



## TELEFON: QULAYLIK MANBAI YOKI ZAMONAVIY XAVF

Bugungi kunda telefon, ayniqsa smartfonlar inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ular nafaqat aloqa vositasi, balki bilim olish, ishlash va hordiq qilish uchun ham keng imkoniyatlar yaratadi. Biroq telefonlardan noto'g'ri foydalanish ayrim salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin.

Avvalo, telefonlarning ijobiy tomonlariga to'xtaladigan bo'lsak, ular insonlar o'rtasidagi aloqani osonlashtiradi. Masofadan qat'i nazar, odamlar bir-biri bilan tez va qulay muloqot qila oladi. Videoqo'ng'iroqlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali yaqinlar bilan doimiy aloqada bo'lish imkoniyati mavjud. Bundan tashqari, telefonlar orqali internetga kirib, istalgan ma'lumotni tez topish mumkin. Bu esa ta'lim jarayonida katta qulaylik yaratadi. O'quvchilar va talabalar onlayn darslarda qatnashib, bilimlarini oshirish imkoniga ega bo'lmoqda.

Telefonlar ish faoliyatida ham muhim rol o'ynaydi. Ko'plab kasblar uchun mobil quрилmalar zarur vositaga aylangan. Elektron pochta, hujjatlar bilan ishlash, onlayn uchrashuvlar o'tkazish — bularning barchasi telefon orqali amalga oshirilmoqda. Shuningdek, telefonlar insonlarga yo'l topish, bank xizmatlaridan foydalanish, hatto sog'liqni nazorat qilish kabi imkoniyatlarni ham taqdim etadi. Shu bilan birga, telefonlarning salbiy tomonlari ham mavjud. Eng katta muammolardan biri — bu qaramlikdir. Ko'pchilik insonlar telefonidan haddan tashqari ko'p foydalanib, vaqtini behuda sarflaydi. Bu esa ish samaradorligining pasayishiga olib keladi. Bundan tashqari, uzoq vaqt telefonga tikilib turish ko'zning charchashiga, uyquning buzilishiga va umumiy sog'liq muammolariga sabab bo'lishi mumkin. Yana bir salbiy jihat — ijtimoiy aloqalarning kamayishi. Ba'zi odamlar real hayotdagi muloqotdan ko'ra virtual muloqotni afzal ko'ra boshladi. Bu esa insonlar o'rtasidagi yaqinlik va samimiylikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, yoshlar orasida bu holat ko'proq kuzatilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, telefonlar inson hayotini yengillashtiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Biroq ulardan me'yorida va to'g'ri foydalanish juda muhim. Agar inson telefonni ongli ravishda ishlatasa, u katta foyda keltiradi, aks holda esa salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

**O'g'ilxon YO'LCHIYEVA,**  
**Termiz Davlat Universiteti talabasi**



## Tumanda Kitobxonlik haftaligi davom etmoqda...

Sariosiyo tuman Axborot kutubxona markazi kitob targ'ibotini rivojlantirish hamda «Kitobsevar millat» shiori ostida VI Respublika kitobxonlik haftaligi doirasida Maktabgacha va maktab ta'limiga qarashli 89-maktab kutubxonasiga tashrif buyurdi. Maktab kutubxonachisi shoira Dilnoz Mushfiq hamda yosh ijodkor o'quvchilar bilan «Mening sevimli kitobim» mavzusida tadbir hamda «Kitobni sevish o'zlikni anglash» mavzusida bahru bayt o'tkazildi. Tadbir davomida o'quvchilar shoira Dilnoz Mushfiqning sherlaridan hamda o'zlari sevib o'qigan sherlardan namunalar aytishdi.

**Madina XOLMATOVA,**  
**Sariosiyo Axborot-kutubxona markazi**

## QUTURISH KASALLIGIDAN EHTIYOT BO'LING!

Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, har yili dunyoda 59 ming odam quturishdan vafot etadi.

Quturish (gidrofobiya) — issiq qonli hayvonlarda uchraydigan, neyrotrop virus qo'zg'atadigan, kasallangan hayvonning so'lagi bilan muloqot natijasida (tishlash, tirnashi, so'laklashi va boshqa muloqotlar) yuqadigan, markaziy asab tizimining chuqur shikastlanishi bilan kechadigan va bugungi kunda o'lim bilan yakun topadigan og'ir zoootroponoz, tabiiy o'choqli o'ta xavfli yuqumli kasallikdir. Bu kasallik hatto kemiruvchilar va ko'rshapalaklardan ham tarqalishi mumkin. Kasallik hayvonlardan hayvonlarga va hayvonlardan odamlarga yuqadi. Odamdanda odamga va odamlardan hayvonlarga yuqmaydi.

Quturish klinikasining kechishiga qarab, uch davrga bo'linadi: boshlang'ich, qo'zg'atish va falaj davrlari. Kasallikning boshlang'ich davri 1-3 kun davom etadi. Alomatlari: Tishlangan joy qichiydi, tortishib og'riydi, bitgan jarohat va chandiqtakroran yallig'lanadi. Bemor tushkunlikka tushadi, odamlar bilan muloqotdan qochadi, uyqusu buzilib, ishtahasi bo'g'iladi, unda qo'rquv hissi paydo bo'ladi, kayfiyati o'zgarib turadi, atrofga loqoyd bo'ladi. Tana harorati subfebril bo'ladi, eshitish va ko'rish qo'zg'atuvchilariga nisbatan sezgirlik oshadi. Kasallik boshlangandan 2-3 kun o'tgach, bemorda qo'zg'atish, ya'ni kasallikning avj olish davri boshlanadi. Belgilari: Bemorning tana harorati ko'tariladi, qon tomirlarining urishi tezlashadi, suvni ko'rganda, hattoki suv to'g'risida eshitganda yutish muskullari tortishib, qisqarib, qattiq og'riydi, ya'ni bemorda gidrofobiya alomati paydo bo'ladi. Shundan keyin bemorda havodan qo'rqish (aerofobiya) alomati qo'shiladi. Havo harorati yoki bemorni biror-bir narsa bilan yelpiganda (sochiq, qog'oz va h.k.), bemor bo'g'iladi, talvasaga tushadi. Xuruj yorug'likdan (fotofobiya), baland ovoz va shovqindan ham (akustofobiya) vujudga keladi.

Bemorning harorati +38°C gacha ko'tariladi, ovozi bo'g'iladi, badani terlab, so'lagi oqadi, xiqichoq tutadi, ko'z qorachig'i kengayadi, oyoq-qo'llari og'riydi. Ko'zlari bir narsadan qo'rqandek ko'rinadi. Tomirining tez-tez urishi davom etadi (taxikardiya), nafas olish yuzaki va tartibsiz bo'ladi, vaqti-vaqti bilan bemor chuqur nafas oladi. Muskullari tortishib, talvasalanish nafas va yutish muskullaridan boshlanib, keyin barcha muskullarga tarqaladi. Bemorning uyqusu buziladi, o'z-o'zini tishlaydi. Es-hushi kirdi-chiqdi bo'lib qoladi, keyinchalik bemorning ko'ziga yo'q narsalar ko'rinadi (gallyutsinatsiya), u alahsiraydi. Bu davr 2-3 kundan 5-6 kungacha davom etishi mumkin. Qo'zg'atish davri odatda 2-3 kun davom etadi. Kasallikdagi yorqin gidrofobiya, aerofobiya, fotofobiya, akustofobiya alomatlari boshqa kasalliklarda uchramaydi va bu alomatlar muhim tashxisiy ahamiyatga ega. Kasallikning uchinchi, ya'ni falaj davrida suvdan, havodan, shovqindan va yorug'likdan qo'rqish alomatlari ancha kamayib, bemor tinchlanadi, suyuqlik icha boshlaydi, ovqatlangisi keladi. Lekin tana harorati yuqori bo'lib qolaveradi, so'zlarni aniq va tiniq ayta olmaydi. Shundan keyin oyoqlar falaji boshlanadi (paraplegiya). Oradan 15-20 soat vaqt o'tgach, tananing boshqa muskullari ham falaj bo'la boshlaydi. Bemordan ko'p so'lak oqishi davom etadi, tana harorati yana ko'tariladi. Shu holatlar davom etib, bemor yurak-tomir faoliyati yetishmasligi yoki nafas markazining falaji oqibatida o'ladi.


Odamlarda quturish kasalligining yashirin davri 7 kundan 1 yilgacha cho'zilishi mumkin. Aksariyat holda kasallikning o'rtacha yashirin davri 10-14 kun bo'ladi, ba'zi bir hollarda 30-90 kun davom etishi mumkin. Bu davrning qisqa yoki uzoq davom etishi virusning xususiyatlariga, odamning kasallik bilan kurashish qobiliyatiga, tishlagan hayvonning turiga, jarohatning qayerda joylashganligiga, katta-kichikligiga va chuqur-yuzakligiga bog'liq bo'ladi. Biz ko'proq quturish kasalligidan saqlanish, uning oldini olish to'g'risida o'ylashimiz kerak. Kasallikning oldini olishning oltin qoidasi bor: hayvon tishlashidan saqlanish, bordi-yu biror-bir hayvon etishi muqarrar, shu zahotiyog tegishli tibbiyot muassasasiga murojaat qilib, quturishga qarshi emlash olish. Quturish bu avvalo hayvonlar kasalligi va odamga kasallik faqat hayvonlardan yuqadi. Shu sababli quturish kasalligining birinchi navbatda hayvonlar o'rtasida qayd etilishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Quturish yuqani erqa yoki kech aniqlansa ham kasallik albatta o'lim bilan tugaydi, ya'ni bu kasallikda o'lim muqarrar, chunki bugungi kungacha bu dahshatli kasallikning samarali davolash usullari ishlab chiqilmagan, shunga qaramasdan bemorlarga shifokorlar tomonidan tinchlantiruvchi va boshqa simptomatik davo usullari qo'llanadi. Respublikada odam uchun kasallikning yetakchi manbai — itlar hisoblanadi. Oxirgi yillarda quturish kasalligiga chalingan odamlarning 95 foizida itlar va 5 foizida esa boshqa hayvonlar kasallik manbai bo'lgan. Virus quturishga chalingan hayvonlarning so'lagi bilan ajraladi. Virus kasallikning inkubatsion davrining oxirgi 10 kunida va butun kasallik davri mobaynida ajraladi hamda tishlash, so'laklash natijasida kasallik sog'lom hayvonlarga teri va shilliq qavatlar orqali yuqadi. Quturish kasalligiga gumon qilinib, o'lgan itlar bosh miya bo'lakchalari laboratoriya usulida veterinariya xizmatiga qarashli laboratoriyalarda tekshiriladi. Quturish kasalligining laboratoriya diagnostikasi miyadan tayyorlangan surtmada Babesh-Negri kirittmalarini oddiy yorug'lik mikroskopida, lyuminescent mikroskopida immunoflorestentsiya reaksiyasi, immunoferment tahlili usulida yoki immunodiffuziya reaksiyasida virus antigenini ko'rishga hamda albatta yosh oq sichqonlarda biosinov qo'yishga asoslangan.

Har bir fuqaro quturish kasalligining oldini olish bo'yicha quyidagi "oltin qoidalar"ga amal qilsa bas: it saqlash qoidalarga puxta va muntazam amal qilish; itlarni hududiy veterinariya xizmati idorasiga o'z vaqtida hisobga qo'yib, quturishga qarshi emlatish; egasiz, daydi itlarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik; imkoni boricha it va boshqa hayvonlar tishlashidan saqlanish choralarini ko'rish, bordi-yu biror-bir hayvon tishlasa, zudlik bilan tibbiy yordamga murojaat etish va mutaxassis vrachning tavsiyasiga ko'ra quturish kasalligiga qarshi emlatish. Yuqorida aytilgan tavsiyalarga amal qilingan taqdirdagina, biz dahshatli, o'ta xavfli yuqumli kasallik hisoblangan quturishdan o'zimizni asragan bo'lamiz.

**R.PARDAYEV,**  
**Sariosiyo tuman SanEpid bo'limi epidemiologi**  
**O.ESHOV,**  
**Favqulodda vaziyatlar bo'yicha epidemiologiya vrachi**

## Ба ифтихори зодрӯзи устод Садриддин Айний



# БУЗУРГВОР ВА ХОКСОР

(Ёддошти Саид Аҳмад дар бораи устод Айний ва Фағур Фулом)

пеш аз чанг навишта шуда дар маҷаллаи «Ўзбекистон адабиёти ва санъати» чоп гардида, ба шакли китоб акнун ба нашр расида буд. Домулло аз ман ду-се маротиба «Оё китоб баромад?» гуфта пурсида буданд. Ҳамон рӯз мо ҳар се бо певзди беғоҳӣ ба роҳ баромадем. Ду қабати поёни ва як қабати болои кӯпе ба мо расида буд. Борхоро чобачо карда акнун нишаста будем, ки як роҳиби (пол) дар гарданаш салиб оевхта даромад. Ҷ бори худро ба қабати болои гузошта боз ба берун баромада рафт.

Чанг тамои шуда бошад ҳам ҳоло рӯзгузаронӣ дуруст ба маҷрои худ надаромада буд, ҳанӯз нонро бо картошка меоданд. Бинобар ин ҳам Муҳаррам-апа (ҳамсари Фағур Фулом-Т.Х.) барои тўшаи роҳ баъзе хўрданиҳои пухта дода буд. Ману Ҳамид Фулом ҳоло чавон буда аз нўшокиҳо рў намегардондем. Барои хуш гузаронидани сафар як-ду шиша аз нўшокиҳо ҳам гирифта будем. Ба купеямон даромадани шахси бегона моро чандон хуш наомад.

Осуда бошед, -гуфт Фағур-ака, -бо бисёре аз ин тоифа ҳамсўхбат шудаам: попҳо хеле нўшанда мешаванд. Як-ду пилёро пур-пур карда дикем, хоб карда менамоям.

Гап ба гап пайваста ба Иван Грозний рафта расид. Фағур Фулом ба муносибати Қазонро забт кардани Иван Грозний сохта шудани маъбади «Василии хушбахт», барои достони «Гаврилиада»-ро навиштан қариб ба суди монастири қашида шудани Пушкиро қисса кард.

Роҳибро то ба ин дараҷа ҳамадон будани ин марди одии тоқии ҷустипўш ба ҳайрат гузошта буд.

Вақт аз нимаҷаб гузашта буд, бояд ҳок мекардем. Аммо сўхбати ин ҷарду ҳеч ба охири намерасид. Ҷ кӣ будани Фағур-ақро қонистан меҳост, аммо пас аз чанд соати суҳбат бо ӯ дигар аз пурсидани ибто мекард. Хуллас, аз ӯ дар воқеали Самарқанд ҷудо шудем. Ростӣ гап, ӯро дар истоҳ гўм кардем. Зеро шоирони самарқандӣ барои пешвози устод тўда шуда ба ромада буданд. Бо онҳо банд шуда по-про фаромўш ҳам кардем.

Ба вохўри боз ду рўз вақт монда буд. Нависандагони Самарқанд аз ин фурсати мусоид истифода бурда бахшида ба эҷоди Фағур-ака дар бинои зиминонани театри вилояти шаби адабии бошқўҳеро орсатан шудаанд. Дар кўчаҳо овезаҳои қалон бо ҳарфҳои чопӣ ба ин мазмун ҳаспоника шуда буд: «Шаби эҷодии академик, Лауреати мукофоти давлатӣ, шоири ордендор Фағур Фулом баргўзор мешавад».

Пас аз он ки борҳои худро дар яке аз хонаҳои боғи обком чо ба чо кардем, Фағур-ака як гап гуфт:

-Шомгоҳон дар театр мешавем, фардо боз ягон кори дигар мекоранд, пас-фардо ба Ургут меравем. Ҳоло ки як-ду соат вақт дорем, як сари қадам рафта домулло Айниро зиёрат карда биёем. Ра-вем, он кас бисёр хурсанд мешаванд. Ин тавр мекунем: Ҳамид, ту ду шиша коняк ёфта биёр. Бинибой (Фағур Фулом шўхи-омез шоғирди худ Саид Аҳмадро, ки бини калон доштааст, гоҳо чунин ном ме-

бурдааст-Т. Х.), ту панҷ-шашто лимў меёбӣ. Домулло одати кам-кам коняк нўшидан доранд. Лимўро ҳам дўст медоранд.

Ману Ҳамид Фулом чизҳои фармуда-шударо аз мағозаҳо наёфта охири аз рес-торан пайдо кардем. Ҳар се пийда ба сўи Регистон роҳ пеш гирифтём.

Ҳавли Садриддин Айний дар поёни Регистон буд. Дарвозаи он рў ба қониби мадрасаи Шердор қарор дошт. Домулло дар хона буданд. Моро дида хеле хурсанд шуданд. Бо Фағур-ака оғўш қўшода вохўри карданд.

Меғўфтанд, ки домулло дар сарфу харҷ хеле пухтакоранд. Мо то беғоҳ дар хонаи домулло меҳмон шуда инро хис накардем. Дастархон пур аз нозу неъматҳо буд. Фағур-ака дар чунин мавридҳо кам-кам «шайтони» мекард. Чизхоеро, ки аз ресторани гирифта будем, рўи дастархон гузошта ба мо чашмакӣ зада гуфт:

-Домулло, медонам, ки шумо кам-кам коняк нўши чон мекунед. Дар Аэропорт лётчиҳои шинос дорам. Назди домулло меравам, қадоматон ба Кавказ парвоз кунед, аз он чо ду шиша коняк ва панҷ-шашто лимў биёред, гуфта таъкид карда будам. Беғоҳ ба хона овардаанд. Дуто лимўро бачаҳо хўрдаанд, мебахшед.

Дар чашмони домулло ашк халқа зад. -Барака ёбед, Мулло Абдуғафур. Лимў бисёр шиғобохаш аст. Онро ба касе на-дода худам эҳтиёт карда мекунам. Домулло аз шодӣ саросема шуда аз чоид бар-хостанд.

-Шумо, Мулло Абдуғафур, аз нишал-лои бозор нахуред. Онҳо қаллобанд. Ман ба шумо худам нишалло карда медиҳам. Инро гуфта домулло ба берун баромаданд. Ҳамид Фулом ва ман барқвор ба Фағур-ака нигаристём.

-Домулло ро фиреб додед-а? -Агар касеро хурсанд карда тавонад, дурўр ҳам равост. Дидед, домулло об шуда рафтанд. Хозир чилчўб оварда худа-шон ба мо нишалло карда медиҳанд.

Ҳақиқатан ҳам домулло дар даст як деги хурди мисин ва чилчўб ба хона да-ромаданд.

Китобхоро ба назди домулло мондам. Шитобон бо кордча бандҳои онро бури-да экеро ба даст гирифтанд ва ба чашмо-нашон наздик оварда варақ заданд. Си-пас ба ман ниғоҳ карда: «Хайрият, баро-мадаст, ташаққур, писарам», гуфтанд. Баъд аз он ба ҳар сеямон яктой кито-бро соядаст навишта тўхфа карданд. Дар китоби ба ман додашон чунин навишта буданд:

«Ба рафиқ Саид Аҳмад ба нишони дўстӣ. Айни. 4.47».

Фағур-ака ба ман охиста нигариста лўкма партофт: «Домулло туро «дўстам» гуфтанд». Бо вучуди бузургӣ сол маро дўсти худ гуфтани он кас ба Фағур-ака аҷиб намуда буд...

Дар қараёни омода сохтани нишалло сўхбат кўр гирифт. Гапро Фағур-ака сар карда буд.

-Домулло, хеле вақт боз маънии як қалимаро нафаҳмида гаштаам. Таами па-гоҳируёриро нонушта меғўянд. Ин лўғат на дар форсӣ шаст, на дар арабӣ. Дар хал-лҳои туркӣ низ ба он маъний дода наме-

шавад. Саҳл-пахл ба форсӣ наздикӣ до-раду маъний намедиҳад.

Домулло чилчўби дар дасташон буда-ро дар дегча гузоштану аз чойники бо телпак пўшида ба пийёла чой рехта ба фикр фуру рафтанд.

Мо ба сўхбати ин ду шахси бузург оро-мона гўш дода менишастём. Домулло Айний чойро нўшида шуда пийёла боз-хитёт ба як гўшаи дастархон ниҳоданд. Хеле андешиданд.

